

## PEDAGOGICAL BASES OF FORMATION OF MANAGEMENT COMPETENCE IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

Kadyrova F.D.

Researcher of Tashkent State Pedagogical University

### Annotation

This article aims to provide the education system with highly qualified personnel, improve the monitoring and development of the education system, including the creation of national education statistics taking into account international requirements, training of quality professionals who meet the socio-economic requirements of modern society. gives an idea about.

**Keywords:** competence, educator, development, modern society, professional efficiency.

**Kirish.** Mamlakatimizda mustaqillik bilan boshlangan davr xalqimiz hayotining barcha sohalarida milliy ruhimizga mos va xos bo'lgan islohotlarni amalga oshirish uchun keng istiqbollar ochdi, Endilikda «Respublikani haqiqatdan ham, uning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, xalqning azaliy turmush tarzi, an'analari, urf-odatlari va ko'nikmalarini, mavjud beqiyos tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib, yuksaltirish ommaviy bo'lib qoldi.

**Maqolанинig maqsadi.** Zamonaviy jamiyatda kasbiy faoliyatning barcha sohalarida tezkor yangilanishlar mavjud; yosh mutaxassislarning malakasini oshirishga yangi yuqori talablar qo'yilmoqda. O'zbekistonda ta'lmini yanada rivojlairish jamiyatda zamonaviy kadrlar tanlangan holda, axloqli, tashabbuskor, har bir vaziyatda mustaqil ravishda qaror qabul qila oladigan, hamkorlik qobiliyatiga ega, harakatchanligi, dinamikligi, konstruktivligi bilan ajralib turadigan, madaniyatlar aro o'zaro munosabatlarga tayyor, hissiyot hissi bilan ajralib turadigan yoshlarni ko'paytirish.

Markaziy Osiyoda maktab madrasalar o'rta asrlardayoq rivojlangan, hozirgi Ma'mun akademiyasiga o'sha davrda asos solingani fikrimizning dalilidir. Pedagogik tarbiyashunoslikda qadimgi Yunonistondan keyingi Markaziy Osiyoda rivoj topgan. Chunki dunyoga mashhur Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar avvalo madrasada mudarrislik qilganlar. «Ikkinchi muallim» sifatida dunyoga mashhur Abu Nasr Forobi pedagogik madaniyati haqida shunday deydi: «Muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, o'ta bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogirdda muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agarda shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning ilmiga nisbatan sovish va mensimaslik paydo bo'ladi». U axloqning o'n ikki tamoyili haqida fikr yuritganda, xushfe'llik, shirinsuxanlik fazilatini alohida ulug'laydi. Buyuk ma'rifatparvar muallim mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta'lim tizimi, o'qitishni takomillashtirish, o'qituvchi malakasini shakllantirish bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash muammolariga mutloqo yangicha yondashgan olimdir. U o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari, axloqi, odobi, bilimdonligi,

ziyrakligi, topqirligi, farosatliligi, aql zakovatliligi ta'lim va tarbiya uchun asosiy negiz ekanligini ta'kidlab o'tadi. Ayniqsa, uning fikricha, ijodiy izlanish, o'qish va o'qitishning yangi shakl, uslub hamda vositalarini qidirish o'qituvchilarining eng muhim sifatlaridan biridir. Tajribalardan foydalanish va ilg'or texnologiyalarni qo'llash, zamon talablari asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini shakllantirish qoidalarini hayotta tatbiq etish quyidagilarni nazarda tutadi. Sa'diy Sheroziy o'qituvchilarini Talabalar bilan muloqatda bo'lish qoidalaridan xabardor bo'lishga, o'ylab, har bir so'zni o'ylab gapirishga da'vat etadi. Aqli odam ko'p o'yamasdan gapirmaydi, o'z so'zi va fikrini huddi qimmatbaho yoqut kabi dilda saqlaydi.

Davlatimiz rahbarining ta'limga, xususan oliy ta'limga berayotgan bugungi e'tibori har bir oliy ta'lim muassasasida o'qiyotgan talaba yoshlar oldiga bir qator vazifalarni qo'ymoqda. Birinchidan, har bir ta'lim muassasasida o'qiyotgan talaba yoshlar ta'limni rivojlantirish bo'yicha o'zining ijodiy fikri, dunyoqarashi bo'lishi, mavjud muammolarni to'g'ri tahlil qila olishi lozim;

Ikkinchidan, OTMda o'qiyotgan talaba yoshlar zamonaviy ilm-fan va boshqaruv mexanizmlarini chuqur anglagan holda qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolli rejalarini tuzishi, faoliyatni shunga muvofiq tashkil etishi lozim;

Uchinchidan, Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan ta'limga oid me'yoriy hujjatlar mazmunini chuqur tahlil qilish, o'z faoliyatida ularni amalga oshirish bo'yicha doimiy tashabbus ko'rsatishi, belgilangan vazifalarga befarq bo'lmasligi yoki yuzaki yondashmasligi talab etiladi.

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-куватлаш йили”да амалга оширишга oid давлат дастури тўғрисида”ги Фармони, 2018 йил 22 январь. // <http://uza.uz/oz/documents/2017-2021-yillarda-zbekiston-respublikasini-rivozhlantirishn-23-01-2018>

Demak, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining boshqaruv kompetentligini shakllantirishda eng avvalo muomala odobi u aloqa qiladigan odamlar, muassasalar bilan o'z boshqaruv vazifasini bajarayotganda sodir

bo'ladigan axloqiy munosabatlar majmuidir. Ushbu yondashuv asosida Yevropa pedagoglari muomala odobini shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatadilar:

- o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ota-onalar o'rtasidagi muomala;
- o'qituvchi bilan ta'lim muassasasi rahbarlari o'rtasidagi muomala

Pedagogik muomala jarayonida pedagogning muomalaga o'ziga xos moslashuvi alohida rol o'ynaydi. Bunday moslashuv deganda psixologik, nutq, harakat va shu kabi usullar tizimi tushuniladi, mazkur tizim pedagogic vaziyatning vazifasi va xususiyatlariga


o'xshash bo'lgan muomala tuzilishini tashkil etish, ongiga samarali tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun tanlanadi.

Pedagoglarning muomala masalalari haqidagi fikrlarini tahlil qilishimiz natijasida boshlang'ich ta'lif jarayonida muomalaning ko'rinishlarini aniqladik. Boshlang'ich ta'lif jarayonidagi aloqalar tizimida rahbarlar bilan o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi muomala munosabatlar katta o'rinni egallaydi. Bu jarayonda o'quvchi-yoshlar insoniyatning asrlar davomida to'plagan bilimlarini, axloqiy tajribani egallab oladi.

Shuning uchun ham bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi, uning axloqiy sifatlari, xulqiga o'quvchi-yoshlar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. O'qituvchi maktab hayotiga endigina kirib kelayottan barkamol shaxs sifatida shakllanadigan insonlar – o'quvchi-yoshlar bilan muomalada bo'ladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi har qanday vaziyatlarda ham o'zini tuta olishi, tashabbuskor bo'lishi, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlashi, o'quvchilarni dardi bilan yashashi, hamkorlik, hamjihatlik, ijodkorlik bilan ish yuritishi, kasbiy-uslubiy mahorat egasi bo'lishi, so'zi bilan ishi bir bo'lishi, maqsadni aniq qo'ya oladigan va uning ijrosini ta'minlaydigan bo'lishi, vijdonli va adolatli bo'lishi, samimiyligi, vazmin, bag'rikeng bo'lishi, ijodkor, bunyodkor va yaratuvchan bo'lishi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga etadigan, xushmuomala inson bo'lishi lozim.

Zamonaviy bugungi kun Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z bilimlarini izchil boyitib borishi, yangi axborotlarni o'zlashtirishi, davr talablarini chuqur anglashi, yangi bilimlarni izlab topishi, ularni qayta ishlashi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay bilishi talab etiladi.



**1-jadval Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi shartli ravishda quyidagi boshqaruv mahorati mezonlariga ega bo'lishi lozim:**

**Zero, yuksak muomala madaniyati** – Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, ta'lim – tarbiya jarayonini boshqarishda shu jarayon ishtirokchilarining o'zaro ta'sir va hamkorligini aks ettiradi. **Bilim va salohiyat** har bir Bulajak uqituvchi faoliyati samaradorligining asosiy omili hisoblanadi. SHuning uchun har kuni yangi bilimlarni egallashi, qabul qilingan qonun hujjatlarini e'lon qilingan vaqtning o'zida o'rganishi, uning mazmun-mohiyati, yutuq va kamchiliklarini tahlil qila olishi lozim. Boshqaruvda yangi bilimlarga ega bo'lish orqali keyingi istiqbol rejalarini tuzishda yaxshi samara beradi. **Boshqaruvda ijodkorlik** – Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi mahorat pillapoyalaridan ko'tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo'lni, bu yo'ldagi qiyinchiliklardan qo'rqmaslikni anglatadi. Har bir vaziyatda rahbarga zudlik bilan foydali qarorlar qabul qilish va muammolarni bartaraf etishning innovatsion usullarini yaratish imkonini beradi. O'z navbatida bu sohada Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi **qobiliyati** ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki u pedagogik jarayonda rahbarning aqliy, emotsiyonal – irodaviy jihatlarini, tashkilotchilagini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi. **Pedagogik madaniyat** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, uning talabchanligi,adolatliligi, komilligi, rostgo'yligi, to'g'rilibagini anglatadi. Pedagogik mahorat tizimida **Rahbarlik nazokati (takt)** – uqituvchining maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi mahoratining qayd qilingan tarkibiy qismlari uning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari etaklaydi. Ammo tajribali Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda :

- Fikrlash;
- O'ylash;
- boshqaruvning yangi texnologiyalarini o'rganishi, zamonaviy bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasini o'zida shakllantira olishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi avvalambor o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishi va nazorat qila olishi, unga beriladigan sinfda taxsil olayotgan barcha o'quvchilarni to'g'ri boshqara olish qobiliyati, uquvchilarni sifatli tayyorlash kabi barcha jarayonlarga mas'ul shaxs sifatida uning faoliyati, kasbiy mahorati, bilimi, kompetentligini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak: Bugungi kun o'qituvchisi har jihatdan etuk, mas'uliyatli, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan, tez va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qiladigan, doim olg'a harakat qiluvchi shaxs bo'lishi lozim. Zero, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Har bir davlat xizmatchisi har kuni o'zining mehnati bilan egallab turgan lavozimiga loyiqligini isbotlashi shart".

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Avloniy A.Turkiy guliston yoxud axloq-T.:O'qituvchi, 1992.-160 b.
2. Ajdodlar o'giti, hikoyalar, hikmatlar. To'plovchi B.Ahmedov.-T.:O'qituvchi,1990.-240b.
3. Aryabkina I.V. Sootnoshenie ponyatiy «kultura» i «obrazovanie» v kontekste formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya nachalnix klassov [Tekst] I.V. Aryabkina // Povoljskiy pedagogicheskiy poisk. - 2013. - № 2 (4). - S. 82-86.
4. Baydenko V.I. Kompetensii: k problemam osvoeniyakompetentnostnogo podxoda [Tekst] / V.I. Baydenko. - M., 2000. - 114 s.
5. Bespalko V.P. Osnovi teorii pedagogicheskix sistem / V.P. Bespalko. -Voronej, 1977. - 188 s.
6. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – Toshkent, 2015, 4-bet.